



Yoshlar o'rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib etish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish zarur. Shavkat MIRZIYOYEV

IJODIY PARVOZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

Ma'lumki, 2018-yilning 24-iyulida davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan imzolangan "Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3880-sonli Qarorida o'zbek kinoindustriyasining bugungi ahvoli va uning kelajak istiqbollari bo'yicha chora-tadbirlar belgilab berildi. Shuningdek, qarorda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida kino sohasiga oid kadrlar tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, belgilangan vazifalar qatorida institutimizda malakali kadrlar tayyorlash borasida S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya kinematografiya davlat instituti bilan yaqindan hamkorlik qilish masalalariga ham alohida e'tibor berilgan. Masalaning ijrosi yuzasidan 2018-yil 2-5 oktabr kunlari Rossiya Federatsiyasining S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya kinematografiya davlat institutining bir necha kishidan iborat jamoasining tashrifi bizni quvontirdi. Tashrif davomida mehmonlar institutdagi mavjud shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishib, talabalar bilan mahorat darslari, qo'shma konsert dasturlarini namoyish etishdi. Tadbir doirasida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti bilan Butunrossiya kinomatografiya davlat instituti o'rtasidagi hamkorlik shartnomasi imzolandi. Mazkur shartnoma doirasida Butunrossiya kinomatografiya davlat instituti rektori professor B.S.Malishov o'qituvchi va talabalarning tajriba almashinuvi, malaka oshirishi masalalariga alohida e'tibor qaratilishini ta'kidlab o'tdi.

Bugungi kunda kinomatografiya sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirish dolzarb masalaga aylangan. Shu ma'noda, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining iqtidorli bitiruvchilarini hamda institutda "Ijro etuvchi prodyusser", "Kinorejissura va kinodramaturgiya" yo'nalishlari bo'yicha dastlabki saralashdan o'tgan bakalavr darajasiga ega bo'lgan milliy kinematografiya sohasining mutaxassislarini S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya kinomatografiya davlat institutining "Kino va televideniye" oliy bosqichlariga o'qishga yuborish masalasi bo'yicha tadbirlar rejasi ishlab chiqarilmoqda.

2019-2020 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti bakalavriati ixtisoslashgan yo'nalishlarining iqtidorli bitiruvchilari uchun BKDI assistentura-stajirovkasida "Ijro etuvchi prodyusser", "Dramaturgiya" va "Audiovizual san'at rejissurasi" mutaxassisliklari bo'yicha o'qishlarni tashkil etish rejalashtirilgan.

2020-2021 o'quv yilidan boshlab esa Toshkent shahrida kinomatografiya sohasida malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha BKDI filialini (qo'shma fakultetini) ochish, o'qituvchilik faoliyatiga BKDI yuqori bosqichlarida va assistentura-stajirovkasida avval tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislarni, shuningdek, master-klasslar o'tkazish uchun institut professor-o'qituvchilarini jalb qilish to'g'risidagi takliflari hukumat rahbarlari tomonidan ma'qullandi.

Haqiqatan ham yurtimizda kino sohasini rivojlantirish uchun olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning natijasi ko'rinda boshladi. Joriy yilning 12-16 noyabr kunlari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalari Butunrossiya kinematografiya davlat institutida bo'lib o'tgan "38-Xalqaro talabalar festivali"da ishtirok etishdi. Kinoshunos Feruza Fayziyeva rahbarligida "San'atda animatsiya va multimediyaviy loyihalash"

yo'nalishi 1-bosqich talabasi Alijon Abdullayev, 2-bosqich talabasi Dilmurod Tillamurodxo'jayev; "Televideniye va radio rejissorligi" yo'nalishining 4-bosqich talabalari Mahliyo Asqaraliyeva hamda Sarvar Mahkamboyevlar festivalda qatnashib, juda katta taassurot bilan qaytdilar. Biz qatnashchilar bilan festival taassurotlari haqida o'rtoqlashdik:

Feruza Fayziyeva ("Kino, televideniye va radio rejissorligi" kafedrası mudiri) – Moskvadagi Butunrossiya kinomatografiya davlat institutida doimiy ravishda bo'lib o'tadigan an'anaviy "38-Xalqaro talabalar festivali"ga bu yil 4 nafar iste'dodli talabamiz bilan tashrif buyurish nasib etgani biz uchun nihoyatda katta ilmiy va ijodiy imkoniyat bo'ldi. Bu yilgi festival kino san'atining asoschilaridan biri Sergey Eyzenshteynning 120 yilligiga bag'ishlandi. Mazkur festival dunyoning 49 ta davlatidagi taniqli va bo'lajak kinoijodkorlarni birlashtirdi.

Festival doirasida qisqa metrajli, hujjati va animatsion filmlar namoyishi hamda mahorat darslari, ilmiy konferensiyalar bo'lib o'tdi. Taniqli kinoshunos Naum Kleymanning "S.Eyzenshteyn filmlarining retrospektiv namoyishi" haqidagi, Stanislav Sokolovning "Gofmaniada" nomli animatsion filmi haqidagi suhbatlarida, Latviya milliy kinomarkazining direktori, kinoshunos Dita Riyetuma, rejissyor Iosif Rayxelgauz, prodyussor Igor Mishin va yana ko'pgina kino ustalari bilan bo'lib o'tgan mahorat darslarida talabalarimiz faol ishtirok etishdi. O'zlarining tengdoshlari tomonidan yaratilgan filmlarni tomosha qildilar hamda bahs-munozarali muhokamalarda faol qatnashib, filmlar xususida o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar. Shuningdek, filmlardagi badiiyat unsurlari bo'yicha qiyosiy tahlillar qilish imkoniga ega bo'lishdi.



BIZ YO'LG'A CHIQQDIK

O'tgan yili "Kino televideniye rejissorligi" yo'nalishi talabasi Xoliqov Shokir Butunrossiya davlat kinematografiya institutida bo'lib o'tgan "37-Xalqaro talabalar kinofestivali"da "Bizni tushunishmaydi" nomli qisqa metrajli badiiy filmi uchun "Umuminsoniy tuyg'ularning o'ziga xos uslubda ifodalanishi" nominatsiyasi bo'yicha faxriy diplom bilan taqdirlangan edi. Joriy yilda u o'zining "Choy" nomli qisqa metrajli badiiy filmi bilan festivalning tanlov doirasida ishtirok etdi. Yana bir qiziq jarayonlardan biri shundaki, ishtirokchi talabalarimiz filmlarining tanlovdan tashqari namoyishi bo'lib o'tdi. Talabalarimizning filmlarini tengdoshlari yuqori qizqish bilan kutib olishdi.

Shu bilan bir qatorda institut pavilyonlari, rejissor, operatorlarning o'quv mashg'ulot xonalari, dublyaj xonalari hamda kino va telestudiyalari bilan tanishib, o'z tajribalarimizni yanada oshirdik. Albatta bunday katta doiradagi festivalda qatnashishimiz boshqa talabalarida xorijga borish va u yerdagi tengdoshlarining ishini o'z ko'zlari bilan ko'ra olishga bo'lgan ishonch tuyg'usini uyg'otdi. Buni institutimizda amalga oshirilayotgan islohotlardagi so'z va ish birligining natijasi, deya e'tirof etish o'rinli. Yaqin kunlarda O'zbekistonda ham ana shu institut filialining ochilishi bo'yicha sa'y-harakatlar olib borilayotgani kishini quvontiradi.

Alijon Abdullayev ("San'atda animatsiya va multimediyaviy loyihalash" yo'nalishi 1-bosqich talabasi) – Men to'rt yil davomida shu ta'lim dargohiga hujjat topshirib, bu yil talaba bo'ldim, men eng baxtli talabaman! Muhtaram Prezidentimizning bevosita tashabbuslari bilan test sinovlarisiz ijodiy imtihonlar asosida qabul qilinganim juda ham quvonarli hol bo'ldi. O'zingiz o'ylab ko'ring, bir necha yil o'qishga kirolmagan inson uchun bu katta baxt. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevga

o'z minnatdorchiligimni bildiraman. Biz yoshlar uchun yaratilgan bunday shart-sharoitlar, imkoniyatlarni oqlaymiz. To'g'risini aytsam, shu yili 1-bosqich bo'la turib festivalga boraman, deb o'ylamagan edim. Buning uchun rahbariyatga, xususan, institutimiz rektori, professor Ibrohim Jo'rayevich Yo'ldoshevga menga bildirgan ishonchlari, qo'llab-quvvatlaganliklari uchun behad minnatdorligimni bildiraman. Men bu ishonchni o'zimning a'lo o'qishlarim, ijodim bilan albatta oqlayman! Bu festivalda ishtirok etishim maqsad sari intilishimni yanada kuchaytirdi. Ijodga bo'lgan ishtiyoqim yanada oshdi. Taassurotlarim juda katta. Safar chog'ida turli yurtlardan kelgan ko'plab talabalar bilan suhbatda bo'lishga harakat qildim, darslarning qanday o'tilishi bilan qiziqdim. Animatsiya bilan shug'ullanuvchi ustozlar bilan yaqindan tanishib, animatsiya asoslarini o'rganishga harakat qildim. Mashg'ulot o'tiladigan xonalarga kirdik, ochig'i, men uchun nihoyatda qiziq bo'ldi. Ko'p holatlar juda ham boshqacha, u yerda talabalar o'z ustida mustaqil ishlashlari, mutassil harakatda ekanliklari menga ham shijoat va dalda berdi.

(Davomi 2-sahifada)

BUGUNGI SONDA ■

BENAZIR OLIMA
(2-betga qarang)

70 Baxrullo LUTFULLAYEV
yoshda (3-betga qarang)

(B)OYLIKNI NIMA QILSAM EKAN?
(4-betga qarang)

(Davomi. Boshi 1-sahifada.)

Bir holatni uzoq kuzatdim: talabalarining o'zlari, ya'ni operatorlar kechki soat 10 bo'lishiga qaramay tasvirga olib yurishibdi. Bu jarayon talabalarining o'zlarida ijod va izlanishlarning naqadar yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Bu narsa bizning talabalar uchun ham o'rnak bo'ladigan holatdir.

Sarvar Mahkamboyev ("Televideniye va radio rejissorligi" yo'nalishi 4-bosqich talabasi) – Ushbu festivalda qatnashishning o'zi men uchun ulkan yutuq bo'ldi. Bu festivalda kino sohasiga aloqador bo'lgan ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldik. Yangi shakl, yangi uslub va turli dunyoqarashga ega bo'lgan rejissyorlarning filmlari hamda ularning shaxsan o'zlari bilan yaqindan tanishdik. Festivalda 49 ta davlat ishtirok etgan bo'lsa, 49 ta qarash va munosabat bor edi. Har bir davlat o'z mentaletiti, siyosati, ijtimoiy ahvoli, shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda o'zlarini qiynayotgan mavzularni filmlar orqali yoritishgan. Deyarli barcha filmlar yuqori saviyada hamda yuqori mahorat bilan suratga olingan. Festivalda o'zimiz olib borgan filmlar namoyishi ham bo'lib o'tdi. Film haqida savol va javoblar bo'lib o'tdi. Ushbu festivaldan olgan taassurotlarim inson oldiga yuqori maqsadlarni qo'yib harakat qilishi kerak ekan, o'z oldiga qancha ulkan cho'qqini zabt etishni maqsad qilsa, shunga yarasha kuch topadi,



yoki aksincha zabt etiladigan marra qanchalik kichiklashsa, shuncha so'nib borar ekan, – degan xulosaga kelishimga sababchi bo'ldi. Shuningdek, xalqaro festivalda qatnashuvchi filmlar saviyasi qanday bo'lishi keragu, biz qanday darajaga qarab harakat qilishimiz zarurligi haqida juda katta ma'lumotlarga ega bo'ldim. Keyingi ijodiy ishlarimda ushbu ma'lumotlarni yoddan chiqarmagan holda harakat qilaman!

Asqaraliyeva Mahliyo ("Televideniye

va radio rejissorligi" yo'nalishi 4-bosqich talabasi) – Festivaldagi barcha ishtirokchi talabalar safar xarajatlarini o'z hisobidan qoplagan ekan. Bizning safar xarajatlarimiz esa institut hisobidan bo'lganligini alohida ta'kidlamochi edim. Umuman olganda festival doirasida qatnashgan filmlardan, mahorat darslaridan juda ko'p tajribalarni o'rgandim va shunday xulisa chiqardimki, biz o'z ustimizda tinmay ishlashimiz kerak. Shu kungacha bekor o'tgan kunlarimga, ba'zi ijodiy ishlarimni bajarmaganimga afsuslandim! Talabalarni chet eldagi o'quv yurtlariga yuborish zamon bilan hamnafas qadam tashlashning, tajriba o'ttirishning muhim bir yo'li ekanligini, u yerda tahsil olayotgan talabalarga faqat havas bilan qarash emas, ulardan o'zishga intilish kerakligini ham aytib o'tmoqchiman. Institut rahbariyatiga Rahmat!

Dilmurod Tillamurodxo'jayev ("San'atda animatsiya va multimediyaviy loyihalash" yo'nalishi 1-bosqich talabasi) – Moskva shahriga tashrifimiz menda katta taassurot qoldirdi. Har birimiz o'z yo'nalishimiz doirasida kuchli mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan suhbatlarda ishtirok etib, turli xil mamlakatlardan kelgan talabalar bilan fikr almashdik. Rasmiy ochilish marosimida bizga festival haqida umumiy tushunchalar

berilib, namoyish etiladigan filmlar haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'ldik. Quvranlisi shundaki, bu ro'yxatda bizning oliygohni shu yil tamomlagan Shokir Xoliqovning filmi ham joy olganligi nur ustiga a'lo nur bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, muhtaram Prezidentimiz dunyo eshiklarini biz yoshlarga ochib bermoqdalar. Ayniqsa, 2018-yil institutimiz uchun xalqaro aloqalar masalasida sarmahsul yil bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ustozlari hamrohligida iqtidorli talabalar Qozog'iston, Rossiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Polsha, Fransiya davlatlariga borib tajriba almashdilar. Bu esa yoshlarimizning kino sohasidagi bilim va ko'nikmalarni puxta egallashlariga, bu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borishga bo'lgan qiziqishlarining ortishiga, milliy san'at va madaniyatimizni yuksaltirishga, shuningdek uni butun dunyo bo'ylab targ'ib qilishga imkoniyat eshiklarini ochdi.

Nodira QOSIMOVA,
"Kino, televideniye va radio
rejissorligi" kafedrasining o'qituvchisi,
Aziza MIZOMOVA,
"Kino san'ati tanqidi va tahlili"
ta'lim yo'nalishining 1-bosqich
talabasi



*Носирова Адиба Мансуровна 1947 йил Тошкент шаҳрида
зиёлилар оиласида дунёга келди. Ўрта мактабни тамомлагандан
сўнг ҳаммаи орзу қилган касби – театр актёри бўлиш иштиёқига
Санъат олийгоҳига ҳужжатларини топширди ва талаба бўлди.
Ўқш мобайнида ўзига хос иқтидори сабаб бир оз вақт Ёшлар
театрида ҳам ижод қилди.*

БЕНАЗИР ОЛИМА

*Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
«Саҳна нутқи» кафедраси профессори, педагогика фанлари номзоди
Носирова Адиба Мансуровнанинг ёрқин хотирасига*

Илмий-педагогик фаолиятни 1974 йилдан Тошкент давлат маданият институтининг Режиссура бўлимида бўлажак мутахассисларга "Бадий сўз санъати" фанидан сабоқ беришдан бошлади. Адиба Носирова ўқув, таълим-тарбиявий ишларни илмий-услубий ишлар билан узвий бирликда олиб боради. Олиманинг фаолиятига назар ташлайдиган бўлсак, у илк илмий ижодини 1988-1993 йиллар мобайнида Санкт-Петербург давлат маданият институти Маданиятшунослик кафедрасида "Байрам шароитида шахс ўйин маданиятини ривожлантиришнинг педагогик имкониятлари" мавзусидаги номзодлик диссертацияси устида тадқиқот ишларини олиб борди.

Адиба Носирова дарс бериш жараёнида "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури" ҳамда "Таълим тўғрисидаги қонун"ни ҳаётга тадбиқ этган ҳолда янги педагогик технологиялар асосида олиб борди. У маҳаллий матбуотда чоп этилган ўнлаб мақолалар, сўз санъати фани бўйича тузилган ўқув дастури, илмий мақолалар ва услубий тавсияномалар, маъруза матнларининг ҳам муаллифидир.

Маҳоратли педагог йиллар мобайнида кўплаб истеъдодли шогирдларни камолга етказди. Уларнинг аксарияти ҳозирги кунда Ўзтеле радиокomпания, республика театрлари ҳамда маданий-маърифий муассасаларда хизмат қилиб келмоқда.

Адиба Носирова илмий фаолиятдан ташқари жамоатчилик асосида ҳам кўплаб хайрли ишларга қўл урди. Мамлакатимизда олиб борилаётган маънавий-маърифий ислохотларда санъат ва маданият аҳлининг фаол иштироки ҳамда ёшларнинг юртга содик фарзандлар бўлиб тарбияла-

ниши учун қатор тадбирлар, ватанпарварлик руҳида йўғрилган учрашувларни ташкиллаштиришда бош-қош бўлган.

Ижодкор-олима изланишлари мобайнида "Шахс ўйин маданияти" ва "Сўз санъати" ўқув қўлланмаларини нихоясига етказди. Муаллиф ўзининг "Саҳна нутқи" фани юзасидан тайёрлаган, китобида нутқ техникаси, артикуляция, дикция, нафас ва овоз устида ишлаш бўйича комплекс машқлар, жумладан, манзаравий парчалар, тез айтиш, мақол ва маталлар орқали нутқий оҳандорликка эришиш, монолог, диалоглар, шеър, масал, рубоий ва ғазаллар устида ишлаш натижасида нутқда ифодавийликка эришиш усуллари бўйича тавсиялар бериб ўтган. Шунингдек, мазкур китобда бадий матнлар намунаси келтирилган бўлиб, ўқувчини ҳам назарий, ҳам амалий билим олишига кўмак беради. Унинг бу каби дарсликлари бугунги кунгача фан сифатида қўлланилиб келмоқда.

Адиба Носирова Ўзбекистон Театр ижодкорлари уюшмасининг аъзоси сифатида ҳам санъат ва маданият ривожига йўлида ўз меҳнатини аямаган.

Меҳрибон она, вафодор умр йўлдош, самимий ва камтарин инсон, устозларига садоқатли шогирд ва ўнлаб шогирдларга ғамхўр устоз, ўз касбининг фидойиси, соҳа билимдони, бир қатор илмий мақолалар, китоблар, дарслик ва рисоалар муаллифи, моҳир педагог, ҳассос олима, профессор Носирова Адиба Мансуровнани Яратган ўз раҳматига олсин, охиратлари обод бўлсин.

Гўзал ХОЛИҚУЛОВА,
Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор

ГЕНЕРАЛЬНАЯ АССАМБЛЕЯ EIFL

С 6 по 8 ноября в городе Доха (Катар) прошла Генеральная ассамблея международного консорциума eIFL (Электронная информация для библиотек). Консорциум является некоммерческой организацией, которая работает с библиотечными учреждениями в целях обеспечения доступа к знаниям в развивающихся странах и странах с переходной экономикой в Африке, Азиатско-Тихоокеанском регионе, Европе и Латинской Америке.

Членами консорциума в настоящий момент являются 54 страны, среди которых и Узбекистан. Генеральная Ассамблея eIFL является главным ежегодным заседанием eIFL, где собираются все сотрудники, партнерские страны eIFL, и специально приглашенные выступающие. На Генеральной ассамблее Республику представлял координатор программы открытого доступа, начальник центра информационных технологий нашего института Максим Савочкин. Участники ассамблеи получили уникальную возможность ознакомиться с недавно открытой Национальной библиотекой Катара, обменяться опытом по процессу работы с научными ресурсами, предоставляемыми странам-членам консорциума, национальные представители, в том числе и Максим Савочкин, сделали доклады о достижениях национальных консорциумов за прошедший год и планах на перспективу. Самым значительным событием ассамблеи, традиционно, стала встреча с представителями ряда ведущих мировых научных



издательств, среди которых EBS-CO Publishing, OXFORD University Press, Cambridge University Press, Emerald Group и другие. По итогам переговоров была объявлена ценовая политика, достигнуто соглашение на предоставление скидок, а также открытие бесплатного доступа к ряду научных образовательных ресурсов, публикуемых данными издательствами.

По итогам работы ассамблеи был принят ряд документов, направленных на дальнейшее развитие работы с образовательными ресурсами, доступными странам-участникам eIFL.

Отдел редакции и издательства

Қарақалпақ халқының әдебиаты ғәм мәдениаты ерте дәуірлерге барып тақалады. Бул ҳаққында тарийхый мағлыұматлар көплен ушырасады. Қарақалпақ әдебиатын ғәм мәдениатын изертлеген илимпазлар, бул халықтың даналық сөзлери менен нама қосықларының сансыз көп екенин дәлиллеген. Бул ҳаққында илимпаз Ш. Ұалийханов: «Қарақалпақлар-сахрадағы биринши шайырлар ғәм қосықшылар» – деген пикирлерин билдиреди.

Биринши Президентимиз И.Каримов қарақалпақ халқының көркем өнери ҳақында: «Қарақалпақлардың өзине тән көркем өнери, нама-қосықлары атқарыушыларының жағымлы хәм бийик лапызы хәммени таң қалдырады» – деген еди. Шынында да, әдебият хәм көркем өнер әуладтан-әуладқа өтип, жас атқарыушылар тәрәпинен келешек әуладқа жеткерип бериледи. Мине, усындай өнерлердің бири-жыраушылық өнери есапланады. «Жырау» сөзиниң өзи «жыр айтыу», «жыр жырлау», «даналық сөзлерди несиат етиу» дегеннен келип шыққан. Қарақалпақ жырауларының шежиресинде 100 ден аслам жыраулардың болғанлығын, жыраушылық өнериниң пайда болыуын XIV әсирде жасаған Соппаслы Сыпыра жырау менен байланыстырады. Жыраулар шежиресинен орын алған Соппаслы Сыпыра жырау, Мүйтен жырау, Доспанбет жырау, Шаңкай жырау, Қыяс шырау, Өгиз жырау, Есемурат жырау, Әжимурат жырау хәм басқалар өз дәуиринде хәм бүгинги күнде де жас жырауларға үлги болып қиятыр.

Қобыз әсбабы иләхий әсбап. Оның пири Қорқыт ата есапланып, оның пайда болуы хақында халық арасында аңызлар бар. Усы пирли әсбаптан «Уллы зибан», «Айға шап», «Шербейит», «Көз айдын», «Шаңқай намасы», «Жорытыұлы», «Жан-жан» хәм басқа да намалар жаңлап, халықтың қулағының қурышын қандырған. Ең дәслепки атақлы жыраулар ең кемінде 5 дәстанды ядтан билген. Терме хәм толғауларды сууырып салып жырлай берген. Усының өзінен-ақ, жыраулардың ядыкеш адамлар болғанын көрийүмизге болады.

Жыраушылық өнері сыйрек адамларға инәм етиледі. Олар усындай талантлы дауысы менен дүньяға келеді. Мине, усындай жыраушылық өнерін дауам етип киятырған жаслардың бири-жас жырау Саламат Аяпов. Ол жыр жырлаудың усылларын Нурабулла, Есемурат, Әжимурат жыраулардың ұрпағы Турғанбай Атамуратовтан, Қарақалпақстан халық жырауы Бәкберген Сырымбетовтан үйреніп

ПРОФЕССИОНАЛ КОМПОЗИТОР

БАХРУЛЛА ЛУТФУЛЛАЕВ 70 ЁШДА!

Ижод – инсон умрини безайди, уни мазмунга ва саодатга тўлдиради. Ижодга ошно қўнгилда доимо яхшиликлар ва эзгу ишлар нафаси уфуриб туради. Ана шундай бетакрор ижод соҳиби, профессионал композитор, профессор, Ўзбекистонда хизмат қўрсатган артист, Қорақалпоғистон ва Ўзбекистон санъат арбоби Бахрулла Лутфуллаев бугун 70 ёшни қаршилади. Бугун қаҳраонимиз Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтида педагогик фаолиятини олиб бормоқда.

Бахрулла Лутфуллаев 1948 йили Жиззах вилояти Фориш туманида таваллуд топган. Отаси мактабда ўқитувчи, онаси уй бекаси эдилар. Болалагида Зикриллохон бобосининг хонишларини тинглаб, мусиқага меҳр қўйиб катта бўлди. 1961 йилда Тошкент маданий оқартирув техникумида “Хор дирижёрлиги” йўналиши бўйича ўқиди. Рўза Бекташева, Қобилжон Орипов, Абдусамат Илёсов сингари малакали педагоглардан таҳсил олди. Бўлажак композитор 1965 йили Тошкент давлат консерваториясига ўқишга киради. Тақдирни қарангки, мазкур муассасада ўқиш унга икки маротаба nasib этди. Аввал, “Хор дирижёрлиги”, сўнгра “Композиторлик” йўналиши бўйича таълим олган. Инна Дорошенко, Тўлқин Курбонов, Ботир Умиржонов каби профессионал устозлар сабоқ беришган.

Бахрулла Лутфуллаев ўз иш фа-
олиятини 17 ёшида Миллий теле-
радиокомпаниянинг хор жамоасида
бошлади. У 23 йил давомида оддий артист
лавозимидан дирижёргача кўтарилди.
Кейинчалик радиода ва Маданият вазир-
лигида ҳам ишлаган.

Композитор ижоди серкирралиги билан алоҳида ажралиб туради. Хор жанрида кўшиқлар, оркестр учун ва мусикали драмалар учун асарлар яратган. “Она”, “Уруш, номинг ўчсин жаҳонда!”, “Ватан”, “Ота” сингари тароналар минглаб қалблардан ўрин олган, колаверса, юртимизда ўтказиладиган миллий байрамлар учун Ватанпарварлик руҳидаги кўшиқлар ёзган, эстрада симфоник оркестрида ҳам кенг фаолият юритган. Ижодкор бу йили Шароф Рашидовнинг 100 йиллик юбилеи муносабати билан “Қашмир

ЖЫРАҰШЫЛЫҚ
МИЛЛИЙ МУЗЫКА
МӘДЕНИЯТЫМЫЗДЫҢ
ШЫҢЫ

киятыр. Ол неше эфирлерден бери киятырган жыраўшылык өнерин терең үйрениў ушын Некис мәденият ҳәм көркем өнер колледжин тамамлап, Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик университетиниң Педагогика факультетиниң Музыка тәлим бағдарында, Самарқанд мәмлекетлик университетиниң Магистратура бөлими, Кәспилик тәлим факультети: Музыкалық тәлим бағдарлары бойынша билим алды. Өзбекстан мәмлекетлик көркем өнер ҳәм мәденият институты Некис филиалында билимлендириўдиң сапасын еле де жақслаў мәксетинде талантлы ҳәм билимли жасларға кең имканиятлар жаратып бермекте. Сол қатары жас талант ийеси Саламат Аяповта ҳәзирги ўақытта институтта «Фольклортаныўшылық тарийхы ҳәм теориясы» пәнинен студентлерге билим сырларын үйретип атыр. Жыраўшылық өнериниң сырларын оқыўшыларға жеке сабақларда да үйретип келмекте. Жыраўшылық кәбилетиниң арқасында ол Қазақстан, Қырғызыстан, Түркменстан, Башқуртстан, Туркия, Эстония, Венгрия еллериндеги таңлаўларға қатнасып, қарақалпақ көркем өнерин дүньяға танытып, сыйлы орынларды ийелеп киятыр. Талапшанлығы нәтийжесинде 1977-жылы С.Аяпов мәмлекетлик «Нихол» сыйлығының лауреаты болды. Ҳәзирги ўақытта ол, түрли таңлаўларда ҳәм байрамларда миллий намалар менен бирге эстрадалық қосық атқарыўшылығын байланыстырып, қобыз намаларын атқарып киятыр. И.Юсупов «Қобыз» қосығында:

*Жыраушылық өнері хақында
Жаңа қобыз әсірлердің гүясы,
Қарақалпақ сазларының сағасы,
Қайтқан газдай гаңқылдаған үніңе,
Шадлық куйған жаңа заман гүясы.*

Халықтың алтын гәзийнесин қолға алып,
Ғарры жырау қыя шөлде толғанып,
Алып шығып әсирлердің шаңынан,
Жаңа әуладқа мийрас етти қуғанып, —



деп жырлағанындай, жыраушылық өнери халықтың алтын мйрасы есапланады. Бүгінгі күнде қобыз әсбабының усталары сйрек ушырасады. Қобыз әсбабын соғыу көп мийнет талап етеди. Бирақта, устаның машақатлы мийнети нәтижесинде жаралған қобыз, көп жыллар жыраудың қолында намалар атқарады. Саз әсбаптары ҳаққында айтқанда, ҳазирги ўақытта саз әсбап усталары сйрек ушырасады. Усташылық тараўында «Саз әсбап усталары» мектебин шөлкемлестирсек, келешек әўладқа миллий саз әсбапларымыз бойынша тереңирек билим берген болар едик. Биз бундай ийгиликли ислерди қолға алсақ, 8 әсирден аслам ўақыттан берли киятырған жыраушылық өнерин бүгінги күннің жас жыраулары тәрөпинен үйренилип, жетлистирилип, келешек әўладқа жеткерип берйўге үлес қосқан болар едик.

**Арухан ПАХРАТДИНОВА,
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы
Билимлендириүдин сапасын қадағалау
бөлими бас қәнигеси**



кўшиги” асарини яратиб, Жиззах вилояти мусикали театрида сахнага олиб чиқди. Институтда драматург Насрулло Қобулнинг асари асосида “Орийт” спектаклини сахналаштирди. Кўплаб истеъдодли талаба-ёшлар билан ишлаб, мусикий билимларини оширишда сидкидилдан меҳнат қилмоқда.

Иждокор бугун 55 йиллик фаолияти давомида ўзбек мусикаси ривожига бе-назир хисса қўшди: “Мен бугун мустақил диёрда 70 ёшни қаршилаб, она халқим ардоғида доимо мусикага ошно бўлиб, китобга дўст бўлиб яшамоқдаман. Бадиий асарлар ўқиш жону дилим. Ҳозирда, аввалгига қараганда, истеъдодли ёшлар жуда ҳам кўп. Етарли шарт-шароитлар

хам яратилган, фақатгина уларга тўғри йўналиш бериб, профессионализм йўлида тарбияласак бўлгани. Ўзбек миллий мусикаси асрлар давомида инсонларнинг бахт-саодатли кунларида ҳамроҳ бўлиб келган. Тилагим, мана шу ҳамроҳлик бизни ҳеч қачон тарк этмасин”.

Устозда композитор Бахрулла
Лутфуллаевни муборак 70 ёши
билан табриклаймиз. Баракали ва
сермазmun ижод йўлида янада кўплаб
муваффақиятлар тилаймиз!

**Достонбек РАҲМАТУЛЛАЕВ,
“Санъат назарияси ва тарихи
(киношунос)” мутахассислиги
2-босқич магистранти**

Inson tuygʻulari va tafakkuriga jonli namunadan koʻra kuchli taʼsir yoʻq. Kino ana shunday jonli namunalarni taqdim etadi. Film kishilarni his etish, fikrlash, nafratlanish va eʼtiqod etishga oʻrgatadi. Inson oʻqib bilganlariga qaraganda koʻrgan va eshitgan voqealarini yaxshi esda saqlab qolarkan.

2018-yil boshqa ijtimoiy so-halar qatorida kinematografiya-da ham ulkan oʻzgarishlar davri boʻldi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-avgust-dagi PQ-3176-son va 2018-yil 24-iyuldagi PQ-3880-son qaror-lari eʼlon qilindi. Ushbu qarorlar ijrosini taʼminlash maqsadida so-hada bir qator islohotlar oʻtkazil-di. Joriy yilning 15-avgust kuni MTRK Media-markaz binosida Xalqaro Press-klubining “Milliy kinoindustriyani rivojlantirish: tarixiy anʼanalar, muammolar, yangicha badiiy sifat va maqsad-li sarmoyalar” mavzusida sessiya boʻlib oʻtdi.

Xoʻsh, bugungi kunda biz-ning kinolarimiz qay ahvolda? Ularning janri, mavzusi va gʻoya-si zamonamiz yoshlarini nimaga daʼvat qilmoqda. Kino oʻzidan to-moshabinga qandaydur maʼnaviy ozuqa bera olayaptimi? Undan tashqari kinolarning tarbiyaviy ahamiyati qay darajada? Bu kabi talay savollar kino ijodkorlarini va sanʼat ahlini oʻylantirib kel-moqda.

KINO SANʼATIDA TARIXIY MAVZUDAGI FILMLARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Davlat buyurtmasi asosida olin-gan filmlarga qaraganda xususiy filmlarning komediya janridagi kinolarni koʻproq uchratamiz. Af-shalarda birinchilikni egallab turgan kinoreklamalarning mavzusi ham sevgi-muhabbat, qaynona-kelin mojarolari va past saviyada ishlan-gan filmlardir. Bunga misol qilib, “Salom, rashk”, “Qaysarginam”, “Qaysarginam-2”, “Qitmir kam-pir”, “Gazni bos Jamshid”, “Sevadi, sevmaydi”, “Qaysar oshiqlar” “Dil iztirobi” kabi filmlarni koʻrishimiz mumkin. Shunday ekan, endi bu qolipdan chiqib, jiddiy mavzudagi kinolarni ekranga olib chiqish vaqti kelganini va bu zamon talabi ekan-ligini anglash fursati yetdi.

“Oʻzbekkino” Milliy agentligi

tomonidan milliy kinolarimizni sifatini tubdan yaxshilash, xalq qahramonlarining badiiy timsolini filmlarda gavdalandirish davrimiz talabi boʻlib bormoqda. Shu maq-

sadda “Oʻzbekkino” Milliy agent-ligi qoshidagi Badiiy kengash to-monidan 2018-yilga moʻljallangan kino loyihalar tanlovi eʼlon qilindi. Oldingi yillardagi tanlovlardan farqli oʻlaroq, bu yilgi tematik rejada tarixiy mavzudagi kino loyihalar salmoqli oʻrin egallam-oqda. Badiiy kengash tomonidan tasdiqlangan va ishlab chiqarishga tushirilgan 23 ta badiiy filmdan 11 tasi tarixiy mavzuda edi.

Kino sanʼati faqat hozirgi kun, hozirgi avlod toʻgʻrisida film yarat-ish bilan zamonaviy boʻlib qolmay, balki buyuk tariximizni jonlantir-ish bilan ham zamonaga xizmat qiladi. Insonparvarlik, vatanpar-varlikni targʻib etgan, demokratik qarashlarni oʻzida mujassamlashtir-

gan tarixiy shaxslar tasvirlangan, zamonamiz bilan hamnafas, yosh-lar tarbiyasi uchun xizmat qiladi-gan filmlarni ekranga olib chiqish lozim.

Tarixiy-sarguzasht, tarixiy-inqi-lobiy va tarixiy-biografik filmlarni koʻrganda tomoshabin estetik zavq olish bilan birga, oʻz xalqining oʻtmishi, ota-bobolarning tarixi, turmush tarzi, urf-odatlaridan voqif boʻladi.

Kino sanʼati tarixidan maʼlum-ki, “Alisher Navoiy”, “Ulugʻbek yulduzi”, “Abu Rayhon Beruniy”, “Abu Ali ibn Sino”, “Zahiriddin Muhammad Bobur” singari filmlar va videofilmlarimiz mavjud.

Bugungi kunda esa tarixiy mavzudagi xujjatli filmlardan “Mirzo Ulugʻbek. Osmon toqiga qoʻyilgan narvon”, “Jaloliddin Manguberdi”, “Islomxoʻja” kabi filmlarimiz dunyo yuzini koʻrmoqda.

Rejissor Bahodir Yoʻldoshev tomonidan suratga olingan “Mir-zo Ulugʻbek — osmon toqiga qoʻyilgan narvon” hujjatli filmida Sharqning buyuk mutafakkiri va Movarounnahr hukmdori Mirzo Ulugʻbek hayoti va ilmiy merosi haqida hikoya qiladi. Mazkur kino asar 2017-yilda 74-Xalqaro Venet-

Quyosh bilan mening oʻxshashligim bor. Ikkalamizning ish vaqtimiz deyarli bir vaqtdan boshlanib, bir vaqtda yakunlanadi. Baʼzida yumush-larim unikidan ham choʻzilib ketishi mumkin. Ishing nima deysizmi? Xudoga shukur, tuppa-tuzuk oʻqituvchiman.

(B)OYLIKNI NIMA QILSAM EKAN?

Hajviya	
Oʻquvchilarni aytmaysizmi, hammasi bir-biridan aqlli. Yaqinda 9-sinf oʻquvchilari karra jadvalini tutilmasdan aytib berishdi. Yasha-sin, azamatlar! Maktab direktorin-ing fikriga koʻra, bu bolalar algebra, geometriya, funksiyalar, trigono-metriyani bilishmasmish.	beshta nol degani, 3x200 000 degani.
Oʻrgildim! Hayronman, ularga trimono... trinono... tfu, trigonome-triya oʻzi nimaga kerak ekan? Toʻrtta amalni bilsa boʻldi-da. Bular, dala-da mol boqsinni yo tribono... eee, oʻsha fanni oʻrgansinni?! Innan ke-yin, men oʻzim ham ularni bilmasam.	Toʻgʻri, baʼzi bir xarajatlar ham bor, masalan: gaz uchun... kechirasiz, bizdan gazni uzib tash-lagan... elektr toki uchun ellik-ming soʻm, oilam uchun xarajatlar – besh yuz ellik ming, yoʻgʻe, uch yuz ellik ming soʻm (tejamkorlik tarafdoriman), uchta bolamning maktabdagi xarajatlari uchun – sakson ming soʻm (remont pulidan tashqari), sigir, qoʻy-qoʻzilar uchun yem-xashakka oltmish ming soʻm,va nihoyat oʻzim uchun qirq ming soʻm. Jami besh yuz sakson ming soʻm. Boʻldi, mana shular. Qolgan pulni nima qilsam ekan-a?!
Ha, mayli. Lekin, men oʻz ishinni chin dildan yaxshi koʻra-man. Axir, oʻqituvchilik sharafl-i kasb-da!	Oqil ABDUBARNAYEV, “Ijtimoiy-madaniy faoliyat” taʼlim yoʻnalishi 1-bosqich talabasi
Maoshim ham yomonmas. Naqd olti yuz ming soʻm! Oltining ortida	

Шоира Рихсибаевна Рамазанова
филолог олима сифатида илм нурини таратган зиёлилардан.
Узоқ йиллардан буён Ўзбекистон давлат санъат ва маданият интститути “Тиллар ва адабиёт” кафедрасида талабаларга рус тили ва адабиётидан сабоқ бериб келмоқда. У Республика, халқаро миқёсда ўтказилган тилшуносликнинг долзарб муаммоларига бағишланган илмий-амалий анжуманларнинг фаол ташкилотчиларидан бири.



ТАЛАБАЛАРНИНГ СЕВИМЛИ УСТОЗИ

2007 йил ҳимоя қилган “Композиты в системе русских словообразовательных гнезд” мавзусидаги номзодлик диссертацияси эса Ш.Рамазанованинг илмий салоҳиятини яққол кўрсатувчи, назарий жиҳатдан мукаммал, амалий томондан долзарб муаммони ёритган тадқиқот саналиб, ҳамон соҳа мутахассисларининг диққат марказида. Диссертация матнида ва унинг мазмуни акс этган монографияда илгари сурилган ғоялар янги даврда, янгича йўналишда ривожлантирилаётган илмий манбалардан биридир. Шундай экан, олима Ш. Рамазанованинг рус тилшунослик илми заҳирасини ноёб тадқиқот билан бойитганлиги, ўз умрини ибратли илмий-амалий фаолиятга бағишлагани эътирофга лойиқ.

Олима 60 дан ортиқ илмий мақола ва тезислари эълон қилган, «Специальная лексика в языке газеты» (2008), «Словарь композитов русского языка» (2009) номли ўқув қўлланмалар муаллифи. Ҳозирги вақтда у “Антик адабиёт” ўқув қўлланмаси устида иш олиб бормоқда.

Ш.Рамазанова институт жамоаси, про-фессор-ўқитувчилар ва талабалар ўртасида

хурмат-эътиборга эга, у ҳалол меҳнати ва ижодий фаолияти учун Ўзбекистон Рес-публикаси олий ва ўрта-маҳсус таълим вазирлигининг фахрий ёрлиғи билан мукофотланган. Кўп йиллик педагогик фаолияти мобайнида фақатгина талабаларга билим бериб қолмай, бир қанча масъулиятли лавозимларда ҳам ишлаган. Жумладан, институт илмий кенгаши котиби, факультет декани, кафедра мудири сифатида ҳам фаолият юритиб, республикамиз олий таълими ривожига ўз ҳиссасини қўшиб келган.

Ш.Рамазанова моҳир педагог сифатида ҳар бир талабанинг қобилиятидан келиб чиқиб, унга индивидуал ёндашади. Камтарин, очиқ кўнгил, иш юритишда ўзига хос қатъиятли. Шунинг учун олима институт жамоасида катта ҳурматга эга. “Тиллар ва адабиёт” кафедраси жамоаси филология фанлари номзоди, доцент Шоира Рамазановани 50 ёшга тўлиши муносабати билан чин дилдан қутлайди. Унга илмий ва педагогик фаолиятида мустақкам соғлиқ, ижодий парвозлар тилайди!

“Тиллар ва адабиёт” кафедраси



Muassis: O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti		Tahrir hay‘ati: Go‘zal XOLIQULOVA Hamdam ISMOILOV Antonino KOSHELEVA Rashid USNATOV Mas‘ul kotib: Xurshida FAYZULLAYEVA		Tahririyat manzili: 100025 Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och mavzesi, 127 A uy. Telefon: (0-371) 230-28-13. www.dsmi.uz; dsmi_info@olam.uz		Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo‘limida tayyorlandi. O‘lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq. Nusxasi – 1250 dona. Narxi kelishilgan narxda. Chop etishga 3.12.2018 yilda topshirildi.	
Bosh muharrir: Nafisa RAIMQULOVA		Muxbirlar klubi sardorlari: Muharram BOZOROVA Shavkat DO‘STMUHAMMAD		Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi. Manzil: O‘rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash‘al mahallasi, Markaz –1.			
				Sahifalovchi: Dilmurod DO‘STBEKOV		Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro‘yxatga olingan.	